

TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARNING O`RNI

SHAROPOV MIRABBOS AKBAROVICH

O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni Ijro Etish Departamenti
To'rtinchi mintaqaviy hudud mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi 35-son manzil
koloniyasi Tashkiliy bo'linma boshlig'i mayor

Annotatsiya: Quyidagi tadqiqot ishida nodavlat notijorat tashkilotlarini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Ularning tashkiliy huquqiy shakllari olimlar fikrlari bilan tahlil qilinib, tadbirkorlik faoliyati shug'ullanish chegarasini belgilash orqali ulardan ko'zlangan maqsaddan chetga chiqmaslik maqolaning bosh maqsadi sanaladi. Nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini moliyalashtirish istiqbollari va hozirgi kunda erishilgan hamda kelajakda erishilish ko'zlangan natijalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, nodavlat, tijorat, erishilgan ko'rsatkichlar, tashabbuslar, notijorat.

2021 yil 6 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z lavozimiga kirishishiga bag'ishlangan tantanali marosimda jamiyatimizning barcha sohalarini isloh etish, jumladan, erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.

Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda “Islohotlarning amaliy natijadorligini oshirishda, joylarda yangi tashabbuslarni ilgari surishda aholimizning yanada faolroq, yanada tashabbuskor bo'lishiga erishmog'imiz lozim”. Bugungi kunda fuqarolik jamiyatining o'zagi hisoblangan nodavlat notijorat tashkilotlari aholiga ijtimoiy xizmat ko'rsatish, inson huquqlarini himoya qilish va jamoat nazorati mexanizmlari orqali davlat organlari va mansabdor shaxslar faoliyatining shaffofligi va samaradorligiga katta hissa qo'shadi. Bunda nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi bevosita moliyaviy jihatdan mustaqilligi, moddiy-texnik bazasining ta'minlanganligi hamda ularni moliyalashtirishni izchil diversifikatsiya qilishga chambarchas bog'liq. 2021 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra adliya organlarida ro'yxatdan o'tgan nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning



alohida bo‘linmalari soni 9 160 tani (2019 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra 9 860 ta, 2020 yil 1 yanvar holatiga 10 502 ta) tashkil qilib, shundan 600 tasi Adliya vazirligi hamda 8 560 tasi hududiy adliya organlari tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan. Respublika bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan nodavlat notijorat tashkilotlarning ko‘p qismi sport, inson huquqlarini himoya qilish, yoshlar va tadbirkorlikni rivojlantirish sohalariga to‘g‘ri keladi. Jami 9 160 ta nodavlat notijorat tashkilotning 7 171 tasi jamoat birlashmasi, 484 tasi jamoat fondi, 834 tasi muassasa va 671 tasi boshqa tashkiliy-huquqiy shaklda (palata, filial va b.) tashkil etilgan.

Ko‘rinib turganidek, nodavlat notijorat tashkilotlarining aksariyat qismi jamoat birlashmasi tashkiliy-huquqiy shaklda faoliyat ko‘rsatmoqda. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, mamlakatimizda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat yuritishida davlat ko‘magi asosiy o‘rinni egallaydi. O‘tgan yillar davomida 2021 yilda fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash hajmi davlat tomonidan 2020 yilga nisbatan 2 baravarga oshirilib, 75,8 mlrd. so‘mga yetkazildi. Buning natijasida 2021–2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasiga asosan 2025 yilda erishiligi lozim bo‘lgan ko‘rsatkich 2021 yilning o‘zida 20 foizga oshirib bajarildi. Shuningdek, so‘nggi 5 yil davomida fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan ilgari surilgan 1 750 tadan ortiq ijtimoiy tashabbuslar jami 192 mlrd. so‘m miqdorida qo‘llab-quvvatlandi.

Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llabquvvatlashning moliyaviy manbalari diversifikatsiya qilinishi natijasida:

- nodavlat notijorat tashkilotlarining dastur va loyihalarida band bo‘lgan fuqarolarning soni 10 000 nafardan ziyodni tashkil etmoqda;
- 2 150 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilotining moliyaviy barqarorligi ta‘minlandi;
- xalqaro va xorijiy tashkilotlarga g‘oyaviy qaram bo‘lish xavfining oldi olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 69-moddasiga ko‘ra fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi, fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshirilishi ko‘rsatilgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, mamlakatimizda yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kafolatli himoya qilish maqsadida qonunchilik hujjatlari xalqaro andozalarga mos ravishda takomillashtirilib borilmoqda.

Xususan, nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyat yuritishi yanada takomillashtirish maqsadida Davlat rahbarining 04.05.2018 yildagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF – 5430-sonli Farmoni qabul qilindi. Farmonga ko‘ra nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilinib, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur institutsional baza yaratildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” Farmoniga ko‘ra davlat dasturlarida ishtirok etayotgan nodavlat notijorat-tashkilotlari sonini kamida 80 taga yetkazish ko‘zda tutildi. Shuningdek, davlat manfaatlarini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan tashabbus ko‘rsatuvchi nodavlat notijorat tashkilotlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish tartib taomillari mukammal darajada ishlab chiqilmayotganligi. Shu kabi, ijtimoiy sheriklik davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlari o‘rtasida fuqarolarning keng ko‘lamli ijtimoiy muammolarini hal qilishga qaratilgan hamkorlikning samarali mexanizmini sustligi. Fikrimizcha, yuqoridagi kamchiliklarni o‘z vaqtida tizimli ravishda barataf qilish asnosida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari, balki normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga nodavlat notijorat tashkilotlarini jalb qilish darajasini yanada oshirish, davlatning fuqarolik jamiyati bilan samarali va konstruktiv muloqot mexanizmlari yo‘lga qo‘yish, nodavlat notijorat tashkilotlarining ehtiyojlari tizimli tahlil qilish lozim deb bilamiz. O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlari, bosh tashkiloti O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida joylashgan xalqaro nodavlat notijorat tashkilotlarining hamda chet el nodavlat notijorat tashkilotlarining vakolatxonalarini va filiallari, respublika, viloyatlararo nodavlat notijorat tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

Viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovul hududlarida faoliyat olib boradigan nodavlat notijorat tashkiloti Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalarida ro‘yxatdan o‘tkaziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi nodavlat notijorat tashkilotlarining chet el fuqarolari bo‘lgan xodimlarini, shuningdek ularning qaramog‘idagi oila a‘zolarini belgilangan tartibda akkreditatsiya qilishni amalga oshiradi.



NNTni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ro‘yxatga oluvchi organga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlar ta‘sis s‘ezdi (konferensiyasi) yoki umumiy yig‘ilish o‘tkazilgan kundan e‘tiboran 2 oy ichida, jamoat birlashmasi uchun esa 1 oy ichida taqdim etiladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun hujjatlarni qabul qilib olgan adliya organi ularni 1 oylik muddat ichida ko‘rib chiqadi hamda nodavlat notijorat tashkilotini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida yoki davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi va qaror qabul qilingan paytdan e‘tiboran 3 kun ichida muassislarga davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida guvohnoma yoki qonunchilikning qaysi qoidalari buzilganligi davlat ro‘yxatidan o‘tkazishni rad etishga olib kelganligi haqida aniq ko‘rsatilgan hujjat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. [электрон ресурс]. Қаралган вақти 21.04.2024 й.
2. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик кодекси. [электрон ресурс]. Қаралган вақти 21.04.2024 й. <https://lex.uz/docs/6445145>
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. “Мамлакатни демократик янгилаш жараёнида фуқаролик жамияти институтларининг ролини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”. [электрон ресурс], қаралган вақти 21.04.2024 й. <http://lex.uz/acts/>
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Нодавлат нотижорат ташкилотларини давлат томонидан қўллаб-қувватлаш, уларнинг фаолияти эркинлиги, ҳуқуқлари ва қонуний манфаатлари ҳимоя қилинишини таъминлашга оид қўшимча чоратадбирлар тўғрисида”ги ПҚ – 5012-сонли қарори. [электрон ресурс], қаралган вақти 21.04.2024 й. <http://lex.uz/acts/>
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.03.2021 йилдаги ПФ–6181-сонли Фармони билан тасдиқланган “2021 – 2025 йилларда фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси”. [электрон ресурс], қаралган вақти 21.04.2024 й. <http://lex.uz/acts/>

